

Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim

2024- yil yakuni bo'yicha

- I. Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari
- II. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni
- III. 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi
- IV. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar
- V. Maktabgacha ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti – maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faqat davlat-xususiy sheriklikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moddiy-texnik va metodik jihatdan ta'minlash shakli asosida tashkil etiladi.

Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakuni bo'yicha Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining umumiy soni, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qo'shgan holda, **1 466 tani** tashkil etgan va 2023- yil yakuniga nisbatan **81 taga**, ya'ni **5,8 % ga** oshgan.

Navoiy viloyatidagi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni esa 2024- yil yakuniga ko'ra **1 147 tani** tashkil etgan bo'lib, 2023- yilga nisbatan **70 taga**, ya'ni **6,5 % ga** ko'paygan.

Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni		Jumladan, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni	
	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Navoiy viloyati	1 466	100,0	1 147	100,0
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	139	9,5	90	7,8
Zarafshon	47	3,2	23	2,0
G'ozg'on	14	1,0	10	0,9
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	162	11,0	108	9,4
Konimex	57	3,9	41	3,6
Qiziltepa	216	14,7	167	14,6
Navbahor	166	11,3	135	11,8
Nurota	104	7,1	78	6,8
Tomdi	16	1,1	7	0,6
Uchquduq	41	2,8	21	1,8
Xatirchi	504	34,4	467	40,7

2024- yil yakuniga ko'ra shahar va tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari eng ko'p Xatirchi (**504 ta**) va Qiziltepa (**216 ta**) tumanlarida qayd etilgan. Boshqa shahar va tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar esa G'ozg'on shahri (**14 ta**) va Tomdi (**16 ta**) tumanlarida kuzatilgan.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkichlar Xatirchi (**467 ta**) va Qiziltepa (**167 ta**) tumanlariga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa G'ozg'on shahri (**10 ta**) va Tomdi (**7 ta**) tumanlarida qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni](#)


[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni](#)

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar soni](#)

II. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni

2024- yil yakuniga bo'yicha Navoiy viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar soni **73,5 ming nafarni** tashkil etgan va 2023- yil yakuniga nisbatan **3,5 ming nafarga** yoki **5,0 % ga** oshgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



Kuzatilayotgan davr mobaynida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan qiz bolalar soni **4,0 ming nafarga**, ya'ni **14,5 % ga** oshgan bo'lsa, o'g'il bolalar soni **0,5 ming nafarga**, ya'ni **1,2 % ga** kamaygan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, ming kishi)

	Jami bolalar soni	Jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Navoiy viloyati	73,5	100,0	31,5	42,0	42,9	57,1
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	12,6	17,1	4,4	8,2	34,9	65,1
Zarafshon	7,3	10,0	2,3	5,0	31,5	68,5
G'ozg'on	0,6	0,8	0,3	0,3	50,0	50,0
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	9,2	12,5	4,2	5,0	45,7	54,3
Konimex	2,5	3,4	0,8	1,7	32,0	68,0
Qiziltepa	9,6	13,1	4,7	4,9	49,0	51,0
Navbahor	7,3	9,9	3,6	3,7	49,3	50,7
Nurota	5,5	7,5	2,2	3,3	40,0	60,0
Tomdi	0,5	0,7	0,1	0,4	20,0	80,0
Uchquduq	3,4	4,6	1,1	2,3	32,4	67,6
Xatirchi	15,0	20,4	7,8	7,2	52,0	48,0

2024- yil yakuniga bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning eng ko'p qismi Navoiy shahrida (**12,6 ming**) va Xatirchi tumanida (**15,0 ming**) qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar G'ozg'on shahrida (**0,6 ming**) va Tomdi tumanida (**0,5 ming**) kuzatilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning umumiy sonidan qiz bolalar ulushi Xatirchi tumanida (**52,0 %**) o'g'il bolalar ulushiga nisbatan yuqori bo'lgan. G'ozg'on shahrida esa qiz bolalar va o'g'il bolalar ulushi bir xil. Boshqa barcha shahar va tumanlarda esa o'g'il bolalar ulushi yuqori bo'lgan. Ularning eng ko'p qismi Tomdi tumaniga (**80,0 %**) to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(jami\)](#)

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(qiz bolalar\)](#)

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni \(o'g'il bolalar\)](#)


III. 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi

3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi, ushbu yoshdagi bolalar orasidan qancha qismi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotganligini ko'rsatadi.

Navoiy viloyatida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovining o'sishi kuzatiladi. Xususan, 2020- yil yakuni bo'yicha 3-6 yoshdagi bolalarning **60,1 %** maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsa, 2024- yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich **79,1 % ga** yetdi.

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi

(tegishli yil yakuni bo'yicha, % da)



2024- yil yakunida 3-6 yoshli o'g'il bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi **87,0 % ni**, qiz bolalarning qamrovi esa **70,5 % ni** tashkil etgan. 2020- yil ma'lumotlariga nisbatan qiz bolalarning qamrovi **9,5 f.p.ga**, o'g'il bolalarniki esa **27,8 f.p.ga** oshdi.

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovining
shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, % da)

	Jami bolalar qamrovi	Qiz bolalar qamrovi	O'g'il bolalar qamrovi
Navoiy viloyati	79,1	70,5	87,0
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	98,9	71,7	124,2
Zarafshon	96,6	65,0	125,0
G'ozg'on	87,1	100,3	75,8
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	73,9	69,2	78,3
Konimex	80,4	55,4	102,7
Qiziltepa	73,5	73,8	73,3
Navbahor	72,5	75,1	70,2
Nurota	64,8	53,1	75,7
Tomdi	59,4	28,9	85,5
Uchquduq	92,0	63,2	119,2
Xatirchi	74,2	79,9	69,0

Agar 2024- yil yakuniga ko'ra, 3–6 yoshli bolalarning eng ko'p qismi Navoiy shahri (**98,9 %**), Zarafshon shahri (**96,6 %**) va Uchquduq tumanida (**92,0 %**) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bo'lsa, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan eng past qamrov Nurota (**64,8 %**) va Tomdi tumanlariga (**59,4 %**) to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi \(jami\)](#)

[3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi \(qiz bolalar\)](#)


[3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi \(o'g'il bolalar\)](#)

IV. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni maktabgacha ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bolalar bog'chalari malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish darajasiga, shuningdek, ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirishga bevosita ta'sir qiladi.

2024- yil yakuni bo'yicha Navoiy viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar soni **6 436 kishini** tashkil etgan va 2023- yilga nisbatan **25 nafarga**, ya'ni **0,4 % ga** oshgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, kishi)



¹⁾ 2020-2022- yillar yakuni bo'yicha berilgan ma'lumotlar oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar sonisiz keltirilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar sonini shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, kishi)

	Jami pedagog xodimlar soni	Jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
			ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Navoiy viloyati	6 436	100,0	6 339	97	98,5	1,5
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	1 293	20,0	1 284	9	99,3	0,7
Zarafshon	729	11,3	727	2	99,7	0,3
G'ozg'on	83	1,3	82	1	98,8	1,2
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	732	11,4	713	19	97,4	2,6
Konimex	235	3,6	231	4	98,3	1,7
Qiziltepa	836	13,0	822	14	98,3	1,7
Navbahor	541	8,4	532	9	98,3	1,7
Nurota	435	6,8	422	13	97,0	3,0
Tomdi	50	0,8	50	-	100,0	-
Uchquduq	377	5,9	376	1	99,7	0,3
Xatirchi	1 125	17,5	1 100	25	97,8	2,2

Agar 2024- yil yakuni bo'yicha shahar va tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlarning eng ko'p qismi Navoiy shahrida (**1 293 nafar**) va Xatirchi tumanida (**1 125 nafar**) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar G'ozg'on shahri (**83 nafar**) va Tomdi tumanida (**50 nafar**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

V. Maktabgacha ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Maktabgacha ta'lim bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsada, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar integratsiya yo'li bilan olinadigan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining ma'muriy ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar vazirlik tomonidan har yili taqdim etiladi.

Maktabgacha ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, ulardagi guruhlar va o'rinlar soni, bolalar va pedagog xodimlar soni, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Ushbu ma'lumotlar Respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Aholi turmush darajasi
va ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi

Manzil: Navoiy sh.,

Amir Temur ko'chasi, 4

El. manzil: nv@navstat.uz

Tel.: 79-223-54-98

